

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA IMOM AL BUXTORIY  
HADISLARINI O'RGANISH JARAYONINI TASHKILIY- PEDAGOGIK  
ASOSLARI**

*Razzaqov Bilimjon Begijon o'g'li  
Osiyo xalqaro universiteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Imom Buxoriy hayot yo'li, hadislarining didaktik ahamiyati, umumta'lif muktabalarida Imom Ismoil al-Buxoriy hadislarini o'rgatishdagi ayrim texnologik metodlar bilan tanishtirilgan.

**Kalit so'zlar:** Imom Al- Buxoriy, hadis ilmi, sahih hadislar, Qur'ni Karim, keys stadi, Bliss savollari, Venn diagrammasi.

**ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL BASIS OF THE PROCESS OF  
LEARNING THE HADITHS OF IMAM AL BUKHARI IN GENERAL  
SECONDARY SCHOOLS**

**Abstract.** This article introduces the life path of Imam Bukhari, the didactic significance of his hadiths, and some technological methods for teaching the hadiths of Imam Ismail al-Bukhari in general schools.

**Keywords:** Imam Al- Bukhari, hadith science, authentic hadiths, Holy Quran, case study, Bliss questions, Venn diagram.

**ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ  
ПРОЦЕССА ИЗУЧЕНИЯ ХАДИСОВ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ  
В ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ**

**Аннотация.** В данной статье представлен жизненный путь имама Бухари, дидактическое значение его хадисов, а также некоторые технологические методы преподавания хадисов имама Исмаила аль-Бухари в средних школах.

**Ключевые слова:** Имам Аль-Бухари, хадисоведение, достоверные хадисы, Священный Коран, тематическое исследование, вопросы блаженства, диаграмма Венна.

**Kirish.** Imom Ismoil al-Buxoriy o'ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, sahovatli inson ham bo'lgan. U hadis ilmining yetuk olimi sanalsada, zamondoshlari hamda shogirdlaridan ham ilm o'rgangan. Alloma bir ming sakson nafar muhaddisdan hadis eshitgan. Allomaning o'zidan esa to'qson ming nafar kishi ishonarli hadislarini eshitgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Imom Ismoil al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to'plagan., 100 ming "sahih" va 200 ming "g'ayri sahih" hadislarni yod olgan. Imom

Ismoil al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talaba va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va mazkur limning targ'ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko'ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroyga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Ismoil al-Buxoriy bu taklifni qabul etadi va: "Men ilmni xorlab sultonu amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo'lsa, bolalarni uyimga yoki masjidimga yuborsin", -deb javob beradi. SHu bois alloma bilan amir Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy o'rtasidagi munosabatga bir oz putur yetadi. Bunga ayrim hasadgo'y shaxslarning ig'volari ham sabab bo'ladi.

**Muhokama va natijalar.** Amir allomaning shahardan chiqib ketishga farmon beradi. Samarqand ulamolari Imom Ismoil al-Buxoriyni o'z yurtlariga taklif etadilar. Yo'lga chiqqan Imom Ismoil al-Buxoriy Samarqand shahriga yaqin bo'lgan Haftang qishlog'i (hozirgi Poyariq tumanining hududi)da betob bo'lib qoladi va shu yerda hijriy 256 yili 19 ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 872 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu yerga dafn etiladi. Imom al-Buxoriy butun faoliyati davomida ham ilmiy, imkonи bo'lsa, moddiy jihatdan odamlarga, ya'ni Allohning bandalariga biror naf yetkazishni o'zining asosiy maqsadi qilib qo'ygan edi.

Imom Al-Buxoriy hadislarini "Venn" diagrammasi asosida tahlil qilish qoidalari. Topshiriq: "Al-Jome as- Sahih", "Al-adab al-mufrad" asarlarining o'zaro taqqoslang. x xx x Ma'ruza matnnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing: V – bilaman + - men uchun yangi ma'lumot - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi ? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

1. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring. Mavzu savollari v + - ?  
Rasululloh salollohu alayhi va sallamdan so'radilar:"Yo Rasululloh, musulmonlarning afzali qaysi kishidir ?"Qo'lidan va tilidan boshqa musulmonlar ozor topmagan kishidir" , - deb javob berdilar. Rasululloh salollohu alayhi va sallamdan bunday deganlar:"Iymon daraxt yanglig' 60 dan ortiq shoxga egadir.Gunoh qilmoqqa Olloh va bandalardan uyalmak o'sha shoxlardan bittasidir". 39 Olloh taolo oyati kalimasida:" Olloh taolo sizlarning orangizdagи iymon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yorlaqab martabasini ulug' qilgaydir,oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Olloh taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir", - deyilgan.Yana boshqa oyatli kalimada esa :"Yo rabbiy ,ilmni ziyoda qilgaysen,deb ayt!"- deyilgan.

Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o'qitish usuli sifatida xorijiy ta'limda avval-boshda huquq sohasida qo'llanila boshladi: u ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Mamlakatimizdagi ta’lim sohasida keys-stadi, dastlab, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo’llanila boshlangan edi. Keyingi yillarda oliv o‘quv yurtlarida ham o‘qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilayapti. Keysstadini Maktabgacha ta’lim yo‘nalishining ta’lim amaliyotiga keng tatbiq etishning dolzarbliji va zarurligi quyidagi omillar bilan bog‘liq: Birinchidan, bola shaxsining shakllanishida oilaning muhim omil ekanligi, uning nafaqat ta’lim oluvchilarda aniq bilimlarni shakllantirishga, shu bilan birga o‘quvchilarda fikrlash faoliyati, nazariy bilimlarini amalda qo‘llashga tayyorlik va bunga qobililikni rivojlantirish, bo‘lg‘usi mutaxassislarda mustaqillik va tashabbuskorlik, bola shaxsi rivojlanishiga oid muammolar va tadqiqotlarning turli 40 jihatlari bilan bog‘liq keng doiradagi masalalarni idrok etish qobiliyatini ravnaq toptirishga yo‘naltirilganligi bilan. O‘quvchilarning keyslarni ishlab chiqish texnologiyalarini o‘zlashtirishi, keysda taqdim qilinadigan amaliy muammoli vaziyatlarni tahlil etish, yakka tartibda va jamoa bo‘lib ularni optimal hal qilish yo‘llarini izlash malakalarini egallashi, bo‘lg‘usi mutaxassisda funksional vakolatlilikni shakllantirish - kasbiy faoliyatda o‘zining boshqarish va tashkil qilish texnologiyalarini loyihalashtirish, kasbiy jarayon mantig‘ini qurish usullari, shuningdek kasbiy vazifalarni mustaqil va mobil tarzda hal etish usullarini hosil qilishga yordam beradi. Ikkinchidan, bola shaxsi rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan turli muammoli vaziyatlarda bir tizimli asosda va samarali harakat qilish, oqilona echimlarni qabul qilish qibiliyatini egallagan mutaxassislarga muhtojligi bilan. Keysda har xil hayotiy vaziyatlar bayoni beriladi va ularning oqibatlari xususida mushohada yuritish yoki qatnashchilar harakatlarining samaradorligini baholash yoxud muammoni hal etish usullarini taklif qilish talab etiladi. Lekin har qanday holatda ham amaliy harakat modeli ustida ishlash ta’lim oluvchilar – bo‘lg‘usi pedagoglarda bola shaxsini ijtimoiylashuvini ta’minalashni talab qiladigan kasbiy jihatdan muhim xususiyatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Uchinchidan, jahon tajribasi ko‘rsatib turganidek, keys-stadi o‘quvchilarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish, o‘qishga qiziqish va motivlarni hosil qilish, ularni haqiqiy professionallar sifatida etishtirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Jumladan yoshlар tarbiyasida buyuk hadisnavis, muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning ta’limoti o‘quvchilar tarbiyasida eng muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga kelajak avlodda ma’rifatli, bilimli , zakovatli, aqlii va idrokli, baxtli va saodatli, odobli- axloqli, pok hamda iffatli, sabr- 44 matonatli bo‘lib ulg’ayish tuyg’ulari shakllanib boradi. Imom Al-Buxoriy ta’limotida axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Bugungi kunda o‘quvchilarni tarbiyalashda Imom al-Buxoriy hadislarining ahamiyati qanchalik darajada? Keysni yechish jarayonida ushbu vaziyatni tahlil qilib, muammoni hal qilish yo‘llarini ishlab chiqishga harakat qiling. Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavzu

bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur. Tavsiya etilgan keysni echish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- falsafiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- ma’naviy va axloqiy tarbiya ko‘nikmalarini egallash;
- o‘quv axborotlarini o‘zlashtirish darajasini tekshirib ko‘rish.

Vaziyat- Hadis rivoyatidagi noqislik va ularning to’g’riligiga ishonch hosil qilish masalalari sahobalar davridan boshlanib, o’sha paytdanoq hadislarni yozib olishda bu masalaga alohida e’tibor berilgan. Chunonchi, sahobalarning o’zlari rivoyat qilgan hadislarda ham illatli hadislar uchragan hollar aniqlangan edi. Payg’ambar vafotidan keyin vaqt jihatidan muddat kam o’tgani, hadislarni naql qilishda vositalarning ozligi tufayli dastlabida bunga ehtiyoj unchalik katta bo’lmagandi. Rivoyatda ishtirokchilar soni ko’payib, vaqt o’ta borgan sari roviylarning illatini aniqlashga tobora zarurat kuchaydi. Hadis ilmida ham, muhaddislar orasida ham bu masala muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Hadis roviylariga nisbatan alohida diqqat-e’tibor, chuqr munosabat bilan qaralib, har xil uslubu qoidalar yaratildi. Masalan, qaysi holatlarda zamondoshlarning illati (jarhi) qabul qilinmaydiyu, qaysi bir holatlarda qabul qilinadi kabi aniq yo’l-yo’riqlar ishlab chiqildi.

Muammo: Ushbu vaziyatda Imom al- Buxoriy sahih hadislarni toplashda biror fakt va hodisani dalillash yoki o’z fikrlarini isbot etish maqsadida unga murojaat qilgan o‘rni sezilyapti.

#### AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA – BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO‘YICHA O’QUVCHILARGA USLUBIY KO‘RSATMALAR

Keysni yechish bo‘yicha individual ish yo‘riqnomasi 45 1. Keys bilan tanishing. “Imom Al-Buxoriy sahih va nosahih hadislarni qanday ajratgan?”, “Sahih va nosahih hadislarni farqi nimada.” shu haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo‘lgan butun axborotni diqqat bilan o‘qib chiqing. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang. 2. Sizning fikringizcha, ushbu vaziyatlarda qanday muammo ko‘tarilgan. (Yordam: keys mavzusiga e’tibor bering). 3. Muammoni tasdiqlovchi dalillarni ko‘rsating. 4. Vaziyatlarda Sahih va nosahih hadislarni farqi nimada qanday farqlari mavjudligini ajratib oling va muammoning kelib chiqish sabablarini ko‘rsating. Guruhlarda keysni echish bo‘yicha yo‘riqnomasi 1. Individual echilgan keys vaziyatlar bilan tanishib chiqing. 2. Guruh sardorini tanlang. 3. Vatman qog‘ozlarda quyidagi jadvalni chizing. 4. Muammoni tahlil qilish va echish jadvali Muammoni tasdiqlovchi dalillari Muammoni kelib chiqish sabablari Muallif tomonidan taklif qilingan yechim Guruh echimi 5. Ishni yakunlab, taqdimotga tayyorlang. Keysning yechimlari va xulosalar: 1-vaziyat yechimi. Imom al-Buxoriy hadis ilmida kamolotga erishib, o’zi yod olgan 600 mingga yaqin hadislarni sahih va g’ayrisahihlarga ajratdi. Imom al-Buxoriyning “Al-Jome as-Sahih”(Ishonarli to’plam) asari haqida shuni aytish mumkinki, mazkur manba Islom dini ta’limotida Qur’oni Karimdan keyin asosiy

manba sifatida foydalaniladi. Imom al-Buxoriy yashagan davrdan oldin ta'rif etilgan hadis kitoblarida sahih va g'ayrisahih hadislar aralash holda berilgan bo'lib,o'quvchi ulardagi biror hadisni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini, hadis rivoyat qiluvchining ahvolini tekshirmay va aniqlamay turib, bilolmasdi. Buning uchun o'quvchi o'sha hadisga aniqlik kiritish maqsadida ulamolardan so'rashga majbur bo'lar edi. Mana shunday og'ir davrda Imom al-Buxoriy "Al-Jome asSahih" kitobini 16 yilda yozib tugatib,unga 7275 dan ortiq sahih hadislarni boblarga ajratib tartibli ravishda jamladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hadislarda illat masalasi muhim ahamiyat kasb etib, u bilan shug'ullanadiganlardan pok diyonat va taqvodorlik, qobiliyat talab qilinadi. Imom al-Buxoriy bu sohada o'ziga asosiy dasturulamal qilib olgan ehtiyyotkorlik maslagi uning diyonat, imon-ixlos va xudojo'ylikda yuksak darajaga erishganini ko'rsatadi. Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun) Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari O'quvchilar ro'yxati Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan maks. 0,7 b Muammoli vaziyatning kelib chiqish sababi va dalillari aniq ko'rsatilgan maks. 1,0 b Vaziyatdan chiqib ketish harakat-lari aniq ko'rsa-tilgan maks. 1,0 b Jami 2,7 b Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari Guruhlar ro'yxati Guruh faol maks. 0,7 b Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi maks. 1,0 b Javoblar to'liq va aniq berildi maks. 1,0 b. Jami maks. 2.7b 1. 2. 3. 47

**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mustaqil yurtda, sog'lom aqlga muvofiq yangi ijtimoiy tuzumda yashaydigan barkamol avlodning ma'naviyatini shakllantirishday, ta'lim-tarbiyasini yuksak darajaga ko'tarishday zalvarli yumush borki, u bilan pedagogika tarixi fani shug'ullanadi. Bizga ma'lumki Sharq xalqlari o'zining bir necha ming yillik madaniyati va ma'naviy boyliklari, ilmiy ba'diiy mazmunga boy, mohiyati jihatdan yuksak g'oyaga ega bo'lganligi bilan tarixda ma'lum. Mutafakkirlar asarlardagi ilgari surilgan dunyoviy ilmlar va diniy ilohiy tasavvurlar bir butun holda qabul etilib, inson ilmiy tushunchalari asosida talqin 48 etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutaffakkirlarimiz asarlarida keng o'rin egallagan. Ta'kidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al – Buxoriy, Imom atTermiziyy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmiddinov Kubro, Sulaymon Boqirg'oniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ularidan keyin ijod qilgan boshqa mutafakkirlar islom ta'limotini, Qur'oni Karimni, payg'ambarimizning aytgan so'zlari, diniy va axloqiy yo'l-yo'riqlari, hikmatlaridan iborat manba-Hadisi Shariflarni yaxshi bilganlar, ularning ta'sirida ijod etib, kelgusi avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

**(References)**

1. Mirziyoev SH. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T. “O‘zbekiston”, 2017 y.
2. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. Toshkent,O’zbekiston, 1991,13-bet.
3. Uvatov U. Hadis ilmining sultonı.O’zbekiston adabiyoti va san’ati.1993.29-oktyabr.
4. Boboxonov Sh.Tarjima, muqaddima va izohlar. Toshkent,O’zbekiston.1990,6-8 betlar. 50
5. Imom Mahkamov U. Ahloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994-yil. 8. Hoshimovk, Nishonova S, Inomova M, HasanovR “Pedagogika tarixi”
6. Imom Ismoil al-Buxoriy Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari) Toshkent,”O’zbekiston”,1990-yil
7. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiylarasi. – Toshkent.: “Fan” nashriyoti, 2006 y.